

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Toshkent moliya instituti**

**“Bank ishi” kafedrası**

**“Kredit mexanizmi” fanidan**

**MA‘RUZA MATNLARI TO‘PLAMI**

**Tuzuvchilar: i.f.n., dots. Norqobilov S.X.  
k.o‘q. Xolmamatov F.K.**

**Kafedra majlisining 28 avgust 2013 yil  
№1 bayonnomasida  
tasdiqlangan va tavsiya etilgan**

**Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ dots. D.Saidov**

**Toshkent-2013**

## **Mavzu: Kredit iqtisodiy kategoriyasi va kreditlashni tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.**

### **Reja:**

- 1. Kredit munosabatlari va ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'ri.**
- 2. Kredit iqtisodiy kategoriyasining iqtisodiy kategoriyalar tizimidagi o'ri.**
- 3. Kreditning mohiyati va uning ko'rinishi, ya'ni uning yuzaga chiqishi.**
- 4. Kreditlashni tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari**

### **1. Kredit munosabatlari va ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'ri.**

**Kredit** – bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshkalar tomonidan ma'lum muddatga, xak tulash sharti bilan karzga olish va kaytarib berish yuzasidan kelib chikkan iqtisodiy munosabatlar yigindisidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda kreditning urni va axamiyati bajarayotgan funksiyalari bilan aniklanadi. Kreditning funksiyasi – bu kreditning iqtisodiyotdagi faoliyati konkret ravishda namoyon bulishidir.

Samarali tadbirlarni amalga oshirish uchun beriladigan kredit fond kiymati va kapital xarajatlar samaradorligini oshirishga, asosiy fondlar strukturasi yaxshilashga va ishlab chikarish kuvvatlarini uz vaktida ishga tushirishga yordam beradi.

Kredit shunday ishlab chikarish vositalari sotib olish va kiritishga ishlatilishi kerakki, bunda bu vositalari asosida mexnat unumdorligini va mexnatning fond bilan kurollanish darajalari oshadi.

Kreditning umumiy maqsadi bu - ijtimoiy ishlab chikarishni dinamik va proporsional rivojlanish asosida axolining moddiy va madaniy turmush darajasini oshishini ta'minlaydi.

Kredit davlatning iqtisodiy dastaklaridan biri sifatida butun iqtisodiyotning rivojlanishiga va aloxida korxonalar faoliyatiga ragbatlantiruvchi ta'sir kursatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank krediti, ya'ni tijorat banklari tomonidan beriladigan har xil turdagi va ko'rinishdagi kreditlar kreditning asosiy turi bo'lib hisoblanadi. Kredit munosabatlari yuzaga kelishi uchun uning ob'ektlari va sub'ektlari bo'lishi lozim. Bank krediti sohasidagi kredit munosabatlarining sub'ekti bo'lib xo'jalik sub'ektlari, aholi, davlat va boshqa sub'ektlar hisoblanishi mumkin. Ma'lumki, kreditlash jarayonida kredit munosabatlarining sub'ektlari bir tomondan kredit beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida qatnashadilar.

Kreditorlar bo'lib, o'zining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum bir muddatga qarz oluvchi ixtiyoriga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadilar.

Qarz oluvchi - o'ziga tegishli bo'lmagan mablag'ni vaqtincha ishlatib, uni belgilangan muddatda qaytarib berish va u bo'yicha foiz to'lash majburiyatini oluvchi tomondir. Bank kreditiga kelsak, kredit munosabatlarining sub'ektlari bo'lib, albatta, kredit beruvchi bank va qarzdor bo'lib turli yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Kreditning bu turi asosan banklarning jalb qilingan mablag'lar bilan ishlashi bilan bog'liq. O'zida jalb qilingan mablag'larni ehtiyoji borlarga qayta taqsimlash orqali banklar kreditor sifatida faoliyat ko'rsatadi.

80-yillarning iqtisodiyotida qayta qurish jarayonlarining boshlanishiga qadar sobiq SSSRda bank kreditini qarzga oluvchi bo'lib asosan xo'jalik yurituvchi korxonalar va tashkilotlar qatnashganlar, ammo xo'jalik organlari va banklar orasida bank krediti sohasidagi amalga oshgan munosabatlar aksariyat hollarda bir xil turdagi davlat mulkchiligiga asoslangan sub'ektlar o'rtasida bo'lgan. Faoliyat ko'rsatuvchi banklar davlat banklari bo'lgan, undan tashqari sobiq Ittifoq davridagi xo'jalik sub'ektlari tarkibida kooperativlar va boshqa mulkchilik turlariga asoslangan sub'ektlar hissasi juda sezilarsiz bo'lgan.

“Kredit” tushunchasi to‘g‘risida yana to‘xtaladigan bo‘lsak, kreditning ssuda kapitali harakatining shakli ekanligini ko‘rish mumkin. Ayrim hollarda kredit tushunchasiga “qarzga berilayotgan ssuda (tovar, pul ko‘rinishida) tijorat ishonchi” deya ta‘rif berilishini guvohi bo‘lamiz.

Kreditga eng maqbul ta‘rif bu – vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni ma‘lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda kredit faoliyatining ob‘ekti va sub‘ektiga ta‘rif berish orqali iqtisodiy faoliyat turiga kiruvchi va asosiy maqsadi daromad olishga hamda o‘z manfaatlariga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatga kredit faoliyati sifatida ta‘rif berilgan. Kredit faoliyati deganda kredit munosabatlari qatnashchilarining manfaatlarini ko‘zlab, ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan hamda bank xizmatlari va operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan faoliyatning yig‘indisini tushunishimiz mumkin.

Kredit faoliyati kredit resurslariga ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan qayta taqsimlashni amalga oshirish hamda kredit faoliyatining sub‘ektlari uchun daromad olish imkonini beradi. Kredit faoliyati yaratuvchilik tabiatining mohiyati olinayotgan yoki berilayotgan resurslar orqali o‘z manfaatlariga erishishdan iborat. U iqtisodiy munosabatlarning ana shu jihatini etakchi o‘rinlardan biriga chiqaradi. Kredit faoliyatining qatnashchilari shu faoliyat natijasida bevosita yoki bilvosita daromad ko‘radilar.

Kredit faoliyati barcha manfaatdor taraflarga real foyda keltiradi. Qarz oluvchilar ma‘lum bir muddatga o‘zlarining tijorat, ishlab chiqarish va boshqa shu kabi manfaatlariga etishish maqsadida yirik pul kapitalidan foydalanish imkoniga ega bo‘ladilar. Kreditorlar esa foiz ko‘rinishida daromad oladilar. Bundan tashqari, kredit faoliyati ishlab chiqarishga investitsiyaning kirib kelishini rag‘batlantiradi, progressiv tarkibiy siljishlarga turtki bo‘ladi.

Mustakillikning qo‘lga kiritilishi va bozor munosabatlarining shakllanishi bilan O‘zbekistonda kredit munosabatlari sub‘ektlarining mavqei o‘zgardi. Bu vaziyat mulkchilik munosabatlarining chuqur o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bank sohasidagi mulkchilik munosabatlari kushimcha ravishda "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi qonun bilan tartibga solina boshlandi. Ishlab chiqarishni dekoncentratsiyalash va davlat tasarrufidan chiqarish iqtisodiyotni demonopolizatsiyalash, mulkchilikni xususiylashtirishni O‘zbekistonda qabul qilingan qonunlar asosida to‘g‘ri amalga oshirilishi:

- birinchidan - xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar va boshqa banklar sonining tez ko‘payishiga;
- ikkinchidan - ularning ko‘pchiligida egalik qilayotgan davlat mulkchilik shaklini turli xil mulkchilik shakllariga o‘zgartirilishiga olib keldi.

SHunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida xususiy, davlat, jamoa va kollektiv mulkchiligiga asoslangan korxonalar va tashkilotlar tuzilishi hamda faoliyat ko‘rsatishiga huquqiy asos yaratildi. SHu bilan birgalikda, aralash mulkchilikka asoslangan korxonalar ham ochilishi va faoliyat ko‘rsatishi mumkin bo‘ldi.

Ayniqsa, hukumat tomonidan xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag‘batlantirish, aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, ularni xususiylashtirish va faoliyatini erkinlashtirish sharoitida kredit munosabatlari sub‘ektlarining ko‘lami oshib bormoqda.

To‘g‘ridan - to‘g‘ri kredit, hisob - kitob, kassa xizmati bilan shug‘ullanuvchi tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq istagan mulkchilik turiga asoslangan bo‘lishi, shu jumladan, xorijiy kapitalni jalb qilgan holda ham tashkil qilinishi mumkin.

**Kreditlash ob‘ekti** - bu qarzga olingan summa va uning qaysi ob‘ekt - tovar - moddiy boyliklar, xarajatlar va hokazolarga yo‘naltirilganligini anglatadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, kreditlash tarkibini quyidagicha tasvirlash mumkin:



Uch bazaviy element (kreditlash sub'ekti, ob'ekti va ta'minoti) umumlashgan holda kreditlash tizimi sifatida harakat qiladi. Lekin boshqa tomondan yondashadigan bo'lsak, ulardan biri ham etarli bo'lishi mumkin.

Endi **kreditlash sub'ektiga** yana qaytadigan bo'lsak, qarz oluvchi bo'lib mulkchilik turidan qat'iy nazar, bank ishonchini qozongan, ma'lum moddiy va huquqiy kafolatlarga ega foiz to'lash va kreditni o'z vaqtida qaytarishga rozi bo'lgan sub'ektlar bo'lishi mumkin.

Kreditlash sub'ektlariga yanada aniqroq yondashadigan bo'lsak ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- davlat korxonalar va tashkilotlari;
- kooperativlar;
- ishlab chiqarish sub'ektlari va savdo tashkilotlari;
- yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar, fermerlar, mikrofirmalar, shirkatlar, birlashmalar;
- boshqa banklar;
- boshqa xo'jaliklar xususan hukumat korxonalar, qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Undan tashqari, qisqa muddatli kreditlarni yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tadbirkorlar ham olishlari mumkin. Yuqoridagi sub'ektlar kredit oluvchi sifatida faoliyat ko'rsatsa, tijorat banklari yoki boshqa kredit muassasalari kredit beruvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, banklar banklararo kreditlarda qarz oluvchi sub'ekt sifatida ham faoliyat ko'rsatadilar.

Tor ma'noda kreditlash ob'ekti, kredit (ssuda) aynan qaysi maqsad uchun berilsa, shu kredit ob'ekti hisoblanadi va kredit bitimi shu ob'ekt ustida tuziladi. Amaliyotda qisqa muddatli kreditlar ishlab chiqarish zahiralarning turli elementlari uchun beriladi. Sanoatda, masalan, banklar xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, taralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va boshqalarni kreditlashadi. Savdoda kreditlashning ob'ekti bo'lib, tovarborotdagi tovarlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida banklar dehqonchilik va chorvachilik xarajatlari; mineral o'g'itlar, yoqilg'i va boshqa xarajatlarni kreditlashadi. Umuman olganda, qisqa muddatli kreditlar quyidagi 3 ta asosiy ob'ektni kreditlashga yo'naltiriladi:

1. Tovar - moddiy boyliklar.
2. Ishlab chiqarish xarajatlari.
3. Hisob - kitoblar uchun zarur bo'lgan mablag'lar.

Tovar moddiy boyliklari yuqori salmoqqa ega bo'lgan kreditlash ob'ekti hisoblanadi. U korxonaning normativdan yuqori bo'lgan tovar moddiy boyliklarni ishlab chiqarishga joriy qilishda mavsumiy korxonalarda tovar moddiy boyliklarni rejadan tashqari qabul qilinganda, import mahsulotlari kelib tushganda, ularni transportirovkasi bilan bog'liq xarajatlarni, savdo va

ta'minot tashkilotlarida normativdan yuqori tovar zaxiralari yuzaga kelganda kreditlarga murojaat etiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish bilan mablag'lar tushishi jarayoni bir - biriga mos kelmaganda, tugallanmagan ishlab chiqarish salmog'i oshib ketganda kelgusi davr xarajatlariga, ba'zi korxonalariga yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va korxonani qayta ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni amalga oshirishda kreditlarga murojaat etiladi.

Aylanma mablag'larga odatda debitorlik qarzlari yoki tovar - moddiy boyliklar bilan ta'minlanadi.

Qurilish uchun "oraliq" kreditlari bino va inshootlar, offislar, savdo markazlari va shu kabilarni qurish uchun beriladi. Aniqrog'i kredit, bino va inshootlarni qurishda kerak bo'ladigan qurilish materiallari, qurish jihozlari sotib olishga, quruvchi ishchilarni yollashga beriladi. Bu kabi kreditlar kredit oluvchining boshqa bir uzoq muddatli ta'minoti ostida beriladi.

Qimmatli qog'ozlar dilerlariga kreditlar, davlat qimmatli qog'ozlari va xususiy qimmatli qog'ozlar dilerlari ba'zi vaqtlarda qisqa muddatlarda yangi qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun mablag'ga ehtiyoj sezadilar. Bu kabi kreditlarni ko'pgina banklar "jon" deb taqdim etadilar. Sababi, bu kreditlar davlat qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlangan bo'ladi. Bundan tashqari, bu kreditlar juda qisqa muddatlarga beriladi. (bir kundan bir necha kungacha).

CHakana tovaroborotga kreditlar. Banklar avtomobillar, elektrmaishiy jihozlar, mebellar va boshqa uzoq muddat ishlatiladigan tovarlarni qarzga sotib olishni, dilerlar qarzga sotish shartnomasini imzolaganidan so'ng paydo bo'ladigan debitorlik qarzini moliyalashtirish orqali kredit beradi. Bu kabi kreditlashni debitorlik qarzini sotib olish deb ham izohlash mumkin.

Aktivlar bilan ta'minlashga kredit. Bunday kreditlar firmalarning joriy ehtiyojlari uchun, aylanma mablag'larning aylanishini ta'minlash uchun, ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlash uchun tez pulga aylanuvchi aktivlari garovi ostida, 12 oygacha bo'lgan muddatga beriladi. Ta'minot sifatida odatda xomashyo zaxiralari, tovar - moddiy zaxiradari, tayyor mahsulot va ko'p hollarda debitorlik qarzi hisoblanadi. Bu turdagi kreditning keng tarqalgan shakli faktoring hisoblanadi. Tijorat banklari firmalarga uning debitorlik qarzining 70 foizi miqdorida kredit beradi. Hisob - kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar korxonaning mol etkazib beruvchilar bilan bo'ladigan hisob - kitoblarni amalga oshirishda, akkreditiv ochishda, ish haqi bo'yicha davlat korxonalariga kreditlar berishda, o'zaro qarzlarni kechishda kreditlarga murojaat etiladi.

Uzoq muddatli kreditlar quyidagi kreditlash ob'ektlariga yo'naltirilishi mumkin:

- ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish uchun;
- ishlab chiqarish ob'ektlarini qayta ta'mirlash, texnik qurollantirish va kengaytirish uchun;
- texnikalar, asbob - uskunalar va transport vositalarini sotib olish uchun;
- yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun;
- noishlab chiqarish sohasidagi ob'ektlarni qurish va hokazo.

Ko'rinib turibdiki, kreditlarning turlariga qarab ularning kreditlash ob'ekti va sub'ekti farqlanadi. Masalan:

- tijorat kreditida - kreditlash ob'ekti tovar hisoblanib, sub'ekt esa sotuvchi bilan haridor hisoblanadi;
- bank kreditida yuqorida ko'rib chiqqan barcha ob'ektlar bo'lishi mumkin;
- iste'mol kreditida - kreditlash ob'ekti iste'mol tovarlari hisoblanadi;
- xalqaro kreditda - kreditlash sub'ekti bo'lib asosan davlatlar hisoblanadi va hokazo.

## **2. Kredit iqtisodiy kategoriyasining iqtisodiy kategoriyalar tizimidagi o'rni.**

Kredit iqtisodiy kategoriya bulib, ijtimoiy munosabatlarning anik bir kurinishi sifatida yuzaga chikadi.

Kredit xar kandy ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chikarish maxsuli, qiymatning xarakati, karz beruvchi va karz oluvchi urtasidagi iktisodiy munosabatlarini ifodalovchi kategoriyadir.

Iktisodiy kategoriya sifatida kredit kuppina iktisodchi olimlar tomonidan urganilib chikilgan va ular tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan.

Masalan, E.Voznesenskiy, A.Zverev, D.Allaxverdyan kabi olimlar kredit maxsus kategoriya xisoblansa-da, u moliya tarkibiga kiradi, deb xisoblashadi.

V.Zaxarov, O.Lavrushin, M.Passel, I.Levchuk, V.Rыbin, A.Kodirov, T.Koraliev kabi olimlar esa kreditni moliya bilan parallel ravishda faoliyat kursatuvchi aloxida mustakil iktisodiy kategoriya deb xisoblaydilar.

Kreditning mustakil kategoriya sifatida moxiyatini aniklash murakkab savollardan biridir. Kreditni karzga beriladigan qiymatning xarakati sifatida tushunish mumkin.

Zaxarov V. «Kredit vaktinchalik foydalanishga beriladigan qiymat buyicha buladigan ijtimoiy munosabatdir» deb xulosa kilgan bulsa, Kodirov A., Passel M. esa kredit iktisodiy kategoriya bulib, unda ishlab chikarish munosabatlari uz aksini topadi va davlat, xujalik tashkilotlari, koxonalar, muassasalar bir-biriga qiymatni ma'lum vaktga, kaytarib berish va tulash sharti bilan beradilar, deb uktiradilar.

YUkoridagi fikrlarga asoslangan xolda kreditning ba'zi muxim tomonlari aniklanadi:

**Birinchidan**, uning ijtimoiy maxsulot yaratish, milliy daromad va pul resurslarini kayta taksimlashga boglikligi;

**Ikkinchidan**, kreditning xarakat shakliga (tovar yoki pul tarzida) ega ekanligi;

**Uchinchidan**, takror ishlab chikarishdagi xarakatning asosiy xal etuvchi belgisi (karz) ekanligi va x.k.

Berilgan kredit kaytuvchanlik xarakteriga ega. U xuddi shu sifati bilan moliyadan fark kiladi. Ssuda kapitali manbalarining taxlili kreditning iktisodiy kategoriya sifatidagi **moxiyatini** aniklashga asos bulib xizmat kiladi.

Bir kator iktisodchilarning fikricha, kredit jamiyatdagi vaktincha bush pul mablaglarini yigish va ularni taksimlash shaklidir. Bu nuktai nazardan, kredit vaktincha bush pul mablaglarini karzga berish bulib, muayyan belgilangan muddatdan sung bu mablaglar uz manbasiga kaytib kelishi kerak.

Aksariyat olimlarning, xususan, O.Lavrushin, I.Levchuk, V.Rыbin, YU.SHengerlarning<sup>1</sup> fikricha, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida qiymatning ssuda kapitali shaklidagi harakatidir. SHunisi xarakterliki, iqtisodiy adabiyotlarda kredit tushunchasining o'zi bir-biridan farqlanuvchi ikki shaklda talqin etiladi. Birinchidan, kredit pul mablag'larini ma'lum muddatga qaytarib berishlik va foiz to'lashlilik shartlari asosida berishni anglatadi. Ikkinchidan, kredit so'zi tarjima qilinganda "ishonch" degan ma'noni anglatishini inobatga olsak, mijozning kredit to'loviga layoqatliligi kreditorning unga ishonish imkoniyati sifatida tushuniladi. SHu sababli, kredit banklar uchun nafaqat pul mablag'larini mijozga berishni, balki boshqa bir qator amaliyotlarni, jumladan, bank tomonidan mijoz majburiyatlari bo'yicha kafolatlar berishni ham anglatadi. Bunda banklar tomonidan ko'pchilik hollarda kreditni berish va mijozning majburiyatlarini kafolatlash o'rtasida mavjud bo'lgan aniq farqlar hisobga olinmaydi. Mijozlarning majburiyatlarini kafolatlash amaliyotlariga hujjatlashtirilgan akkreditivlar qo'yish, mijozning pullik majburiyatlari bo'yicha kafolatlar berish, mijozlarning veksellari bo'yicha aval berish amaliyoti kiradi.

Xar kandy iktisodiy kategoriya uzining funksiyalariga ega bulgani kabi kredit xam uzining bir kator funksiyalariga ega. Ijtimoiy-iktisodiy tizimda kreditning urni va axamiyati bajarayotgan funksiyalari bilan aniklanadi. Kreditning funksiyasi – bu kreditning iktisodiyotdagi faoliyati konkret ravishda namoyon bulishidir.

---

<sup>1</sup> Лаврушин О.И. Кредит как стоимостная категория социалистического воспроизводства. - Москва: Финансы и статистика, 1989. -173 с.; Левчук К.И. Ссудный фонд и кредит. - Москва: Финансы и статистика, 1988. -109 с.; Рыбин В.И. Кредит как экономическая категория социализма. - Москва: Мысль, 1978. -252 с.

### **3. Kreditning mohiyati va uning ko‘rinishi, ya’ni uning yuzaga chiqishi.**

**Kreditning mohiyati** uning ichki belgilarini ochib berishga karatilgan. Kreditning mohiyatini ochish - bu uning sifatlarini, muxim tomonlarini, iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida kursatuvchi asoslarini bilish demakdir.

Kreditning mohiyatini ma’lum vaktan keyin kaytarib berish va foiz bilan kaytarish sharti yanada kengrok ochib beradi. Bu xar ikkala shartdan tashkari, kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida xarakter kilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chukur ijtimoiy-iqtisodiy belgilarini xisobga olish zarur.

Kreditni tahlil qilishda, funksiya, uning mohiyati va ahamiyati o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kreditning funksiyalari haqida olimlar o‘rtasida yagona izchillik yo‘q.

I. Lavrushinning fikricha, kreditning funksiyalarini tahlil qilishda ikkita echilmagan muammo mavjud:

1. Funksiyani tushunishning uslubiy asoslari.
2. Funksiyalarning tarkibi va strukturasi.

Kreditning tarkibiy qismidan kelib chiqqan holda unga quyidagi munosabatlarga xos funksiyalar taalluqli:

- a) kreditorning qarz oluvchi va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- b) qarz oluvchining kreditor va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- v) qarzga beriluvchi qiymat bilan kreditor va qarz oluvchining munosabati orqali.

Kreditor va qarz oluvchi o‘rtasidagi munosabat shunday aniqlanadiki, bunda kreditor qarz oluvchiga resurslarni taklif qiladi, qarz oluvchi bu resurslarni ishlatadi va bunda qarzga beriluvchi qiymat kreditor va qarz oluvchi o‘rtasida aylanadi. Bu erdan kreditning birinchi funksiyasi kelib chiqadi:

#### **1. Qarzga beriluvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish funksiyasi.**

Kredit va pul mablag‘lari o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda, kreditning haqiqiy pullarni kredit pullari bilan almashtirish funksiyasi oldinga surilgan. Lekin bu funksiya hozirgi kunda iqtisodiy munosabatlar «sahnasidan» chiqib ketgan.

Kreditning tashqi muhit bilan aloqasi uning ikkinchi funksiyasini keltirib chiqaradi.

#### **2. Qayta taqsimlash funksiyasi.**

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalariga ishlab chiqarish, taqsimlash, muomala va iste’molga xizmat ko‘rsatadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq holda kredit, ishlab chiqarish, taqsimlash yoki iste’mol jarayonida kechadigan funksiyalardan farqli o‘laroq qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ssuda kapitali bozori vaqtincha bo‘sh moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabhasidan boshqasiga yo‘naltiruvchi va natijada yuqori foydani ta’minlovchi o‘ziga xos dastak sifatida namoyon bo‘ladi.

Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bo‘sh pul mablag‘lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, muayyan to‘lov asosida beriladi. Bu funksiya yordamida ishlab chiqarishdagi proporsiyalar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

O‘zining turli tarmoqlar va mintaqalarda tabaqalanish darajasiga tayanib, kredit iqtisodning stixiyali makroboshqaruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bazi hollarda bu funksiyaning amalga oshirilishi bozor tizimida nomutanosiblikning chuqurlashuviga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday holat MHD davlatlarida bozor iqtisodiga o‘tish bosqichida namoyon bo‘lmoqda. SHuning uchun kredit tizimini davlat tomonidan boshqarishning muhim vazifalaridan biri bu iqtisodiy ustunlikni oqilona tavsiflash va kredit resurslarini u yoki bu tarmoqqa jalb qilishni rag‘batlantirishdan iboratdir.

#### **3. Muomala xarajatlarini tejash funksiyasi.**

Kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullarni (oltin, kumush) kredit pullari – veksellar, banknotalar, cheklar bilan almashinishini ta'minlab kelgan. Lekin, oltinning monetar ahamiyati yo'qolishi tufayli kredit shu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisobkitoblarni rivojlantirib, hisobkitoblarning tezligini va kam xarajatligini ta'minlamoqda. Kapitalning muomalada bo'lish vaqtining iqtisod qilinishi uning ishlab chiqarishda bo'lish vaqtini oshiradi va bu ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi.

Bu funksiyaning amalga oshishi kreditning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi. Uning manbai sanoat va savdo kapitalining doiraviy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'shagan moliyaviy mablag'lar hisoblanadi. Xo'jalik sub'ektlari pul mablag'larining kelib tushishi va ishlatilishi o'rtasidagi vaqt bo'yicha farq faqatgina ortiqcha mablag'lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag'larning etishmovchiligini ham aniqlab beradi. SHuning uchun korxonalar va tashkilotlarning o'z aylanma mablag'larining vaqtinchalik etishmovchiligini to'ldirish uchun ssudalar berish keng tarqalib borgan.

#### **4. Kapital to'planishining jadallashuvi va konsentratsiyalashuvi funksiyasi.**

Kapital to'planishi jarayoni iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashuvi va xo'jalik yurituvchi har bir sub'ektning maqsadga erishishining muhim sharti hisoblanadi. Bu masalani hal qilishga va ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuning bilan birga qo'shimcha foyda olishga qarz mablag'laridan foydalanish yordam beradi. SHuni ta'kidlab o'tish zarurki, iqtisodiy inqiroz davrida bu resurslarning qimmatligi ko'pchilik xo'jalik faoliyati jabxalarida kapital to'planishini jadallashtirish masalasini xal qilishda to'sqinlik qiladi. SHunga qaramasdan, ko'rib chiqilayotgan funksiya hozirgi sharoitda rejali iqtisodiyot davrida rivojlanmagan va mablag'lar bilan ta'minlanmagan faoliyat jabxalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanish jarayonini sezilarli tezlashtirdi.

#### **5. Muomalaga to'lov vositalarini chiqarish funksiyasi.**

Bu funksiyaning amalga oshishi jarayonida kredit faqatgina tovar emas, balki pul muomalasining jadallashuviga, undan naqd pullarni siqib chiqarib, to'lovlar aylanishining tezlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisobkitoblarni naqdsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Bu masalani hal etishda tijorat krediti zamonaviy tovar almashinuvining kerakli elementi sifatida muhim o'rin tutadi.

#### **Kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi:**

1. Kreditning muddatliligi.
2. Kreditning qaytarilishligi.
3. Kreditning ta'minlanganligi.
4. Kreditning to'lovliligi.
5. Kreditning maqsadliligi.

Kreditning birinchi tamoyili **muddatlilik** bo'lib, u qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kreditlashning muddatliligi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan, kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishinigina bildirib qolmay, balki bu qaytarilishni aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, bir tomondan foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog'liq. Kreditlash muddatliligining bu ikki tomonlama xakteri inobatga olinganda vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to'liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatliligiga rioya qilish banklar uchun ham, qarz oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga bank kredit resurslarining aylanishini jadallashtirsalar va ulardan oqilona foydalanishga erishsalar, xo'jaliklar o'z daromadlarini ko'paytirish, o'z va qarz mablag'laridan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan



amalgga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'larni qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi

**Qaytarishlilik** tamoyili kreditning mohiyatini ifodalaydi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa tovar - pul munosabatlarining iqtisodiy kategoriyalaridan farqi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib turadi. Qaytarilish kreditning ajralmas atributi hisoblanadi. Kredit iqtisodiy munosabatlarni belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi, ya'ni pulning xarajati qaytarib berish sharti bilan amalgga oshiriladi.

Kreditning keyingi tamoyili - kreditning **ta'minlanganligidir**. Bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zahiralari, ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitda kreditning ta'minlanganligi sifatida tovar - moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garov, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo'llanilmokda. Bu holat bank risklarini kamaytirgan holda kreditlarning bankka o'z vaqtida qaytishini ta'minlaydi. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol - mulkni qo'yib rasmiylashtiradi. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50 foizidan 80 foizigacha miqdorida beriladi.

Kreditlashning yana bir tamoyili **tulovlilik** - olingan kredit uchun haq to'lash yoki foizlilikdir. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi korxonaga o'z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag'laridan vaqtincha foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foiz mexanizmi orqali amalgga oshiriladi. Bankning foiz stavkasi bu kreditning "narxidir". Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga shu jumladan resurslarni ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to'lash tamoyili qarzga olingan mablag'lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish muddati o'tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat'iy ravishda rioya qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit to'lovi miqdorini belgilashda ahamiyat beradigan quyidagi asosiy tamoyillar mavjud. Bular:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudalar buyicha o'rnatilgan bazaviy foiz stavkasi;
- banklararo kredit buyicha o'rtacha foiz stavkasi, ya'ni aktiv operatsiyalarni amalgga oshirish uchun boshqa banklardan sotib olingan resurslar buyicha;
- turli depozit hisobvaraqlar buyicha mijozlarga bank tomonidan to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasi;
- bankning kredit resurslarining tarkibi (jalb qilingan mablag'lar hissasi yuqori bo'lganda kredit narxi ham yuqori bo'ladi);
- kreditga bo'lgan talab;
- talab qilinayotgan kredit muddati va kredit turi, ya'ni uning ta'minlanganligiga bog'liq ravishda risk darajasi;

- mamlakatdagi pul aylanishini muvozanati (inflatsiya sur'ati yuqori bo'lsa kredit shunchalik qimmat bo'ladi, chunki pul kadsizlanishi tufayli bankning o'z resurslarini yo'qotish riski ortadi) va boshqalardir;

- kreditning yana bir tamoyili sifatida kreditning maqsadga yo'naltirilganligini olish mumkin. Bunda aniq xo'jalik jarayonlarining kredit bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Kreditni mijoz tomonidan maqsadli yo'naltirilishi tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashni ko'zda tutadi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish ob'ektlari va asbob - uskunalarni sotib olish uchun beriladi. Kreditlar biznes - reja asosida beriladi;

- kreditning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash uning o'z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyilga rioya qilish bank muassasalari tomonidan qarz oluvchi korxonalarining hisobotlari asosida nazorat qilinadi. Berilgan kredit qarz oluvchi tomonidan boshqa maqsadga ishlatilgan bo'lsa, u holda belgilangan tartibda kredit muddatidan ilgari qaytarib olinadi va choralar ko'rilishi mumkin.

Bankning kreditlash tamoyillarining barchasini amaliyotda yalpi qo'llanilishi bank manfaatlarini himoyalashga yordam beradi.

#### **4. Kreditlashni tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etishning asosiy mezonlaridan biri uning me'yoriy-huquqiy asosining qay darajada yaratilganidir. Respublikamiz tijorat banklari kredit faoliyatining huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bank faoliyatiga tegishli qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar to'plami hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Aksiyadorlar jamiyati va ular huquqini himoya qilish to'g'risida", "Bank siri", "Aholi omonatlarini kafolatlash fondi to'g'risida" gi va boshqa qonunlarni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40 - moddasiga ko'ra, tijorat banklari yuridik shaxs bo'lib, ularning asosiy maqsadi foyda olishdir<sup>2</sup>. Faqat etarli miqdorda foyda oladigan bankgina o'z aksiyadorlariga dividend to'lashga, sarmoyani ko'paytirishga, faoliyat ko'lamini kengaytirishga, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirishga, filiallar tarmog'ini kengaytirish bilan birga bozorda o'z mavqeiini ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Banklar aholidan omonatlarni jalb qilib, o'zi tavakkal qilib riskni o'z bo'yiga olgan holda jalb qilingan mablag'larni kredit va investitsiya amaliyotlariga yo'naltiradi. Fuqarolik kodeksining 765 va 785 moddalariga hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunning 39 - moddasiga asosan banklar jalb qilingan omonat va boshqa mablag'larning to'laligicha saqlanishini va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashlari shart.

Kreditlash jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunining 4-moddasiga asosan quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- ◆ qaytarilishi;
- ◆ foizligi;
- ◆ muddatliligi<sup>3</sup>.

Bundan tashqari kreditning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilishi va ta'minlanganligi ham tamoyil darajasida ahamiyatlidir.

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси Тошкент: -2003. -Б. 300-308.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида"ги Қонуни. Тошкент: Ўзбекистон, 1996 йил 25 апрел. Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами. - Тошкент: Ўзбекистон, 2003. -Б. 30-46.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilish siyosati iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori bank tizimida ham keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda.

Kreditlash jarayonini tashkil etish, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish kabi masalalarni to‘g‘ri amalga oshirish kredit riski darajasini pasaytirishga, hamda bank kredit portfelini sifatini yaxshilashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig‘iladi, hamda bu banklar huquqiy va jismoniy shaxslarga o‘zlarining jozibador xizmatlarini ko‘rsatadilar.

Davlatning iqtisodiy jihatdan rivojlanish jarayonida xo‘jalik sub‘ektlarini kreditlash tartibining o‘zgarishi ham odatiy holga aylanib qolgan. Markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida pul-kredit resurslari korxonalarga rejadagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ajratilgan fondli tovar-moddiy boyliklarini sotib olish uchun beriladigan mablag‘lar turlaridan biri hisoblanardi. Boshqacha qilib aytganda, o‘sha paytlarda pul-kredit va moliya siyosati yuqoridan beriladigan ko‘rsatmalar bilan rejalashtirishga asoslangan. Bunday sharoitda xo‘jalik sub‘ektlariga qisqa muddatli kreditlar berilishini tashkil etish va joriy kreditlash amaliyoti moddiy resurslarni markazdan turib taqsimlash va ularning rejali harakati manfaatlariga xizmat qilgan.

Mustaqillik yillarining boshlarida tashkil qilingan bank tizimi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bank tizimining boshlang‘ich pillapoyasi sifatida faoliyat boshlagan.

Respublika iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o‘tishi me‘yoriy hujjatlar mazmunini tubdan o‘zgartirish, kreditlash ob‘ektlariga, qarz hisob raqamlari va garov ta‘minoti hamda boshqa moliya vositalariga yangicha yondoshuvlar ishlab chiqish ehtiyojini vujudga keltirdi.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tilishi va uning rivojlanishi respublika tijorat banklarida kredit berishning me‘yoriy bazasini tubdan o‘zgartirishni talab etdi.

Respublikada mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi, kredit ta‘minoti va kreditlash tartibidagi o‘zgarishlar hisobga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996 yil 20 aprelda “Xo‘jalik sub‘ektlariga qisqa muddatli kreditlar berish qoidalari” ishlab chiqildi. SHunga asosan barcha banklar qisqa muddatli kreditlar berish tartibini amalga oshira boshladi.

Qisqa muddatli kreditlash amaliyotida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududida xo‘jalik sub‘ektlariga qisqa muddatli kreditlar berilishini tashkil etish qoidalari” yangi tahrirda ishlab chiqildi va shunga asosan tijorat banklari kreditlash jarayonini amalga oshirdi.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini tashkil etishdagi keyingi o‘zgarishlarga “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni asos bo‘ldi<sup>4</sup>. Bu Farmonga asosan kreditlash borasida tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, kreditlash jarayonini kengaytirish va takomillatirish masalalarini amalga oshirish ko‘zda tutildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir bankni siyosiy, iqtisodiy va ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritishi amalda mustaqil bo‘lishini talab etadi. Tijorat banklari shunga muvofiq o‘zining mustaqil kredit siyosatini va kreditlash nizomini ishlab chiqishdi. Hozirgi kunda har bir tijorat banki qisqa muddatli kreditlash amaliyotini “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga, kredit siyosatiga va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirmoqda. Bu esa barcha banklarning yagona umumiy me‘yoriy hujjat asosida emas, balki mustaqil ravishda, o‘z faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kreditlash jarayonini tashkil etishga imkoniyat yaratadi. SHundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda tijorat banklari kreditlash jarayonini tashkil etib, uni yildan-yilga takomillashtirib bormoqdalar.

---

<sup>4</sup> “Банк тизимини янада эркинлаштириш ва ислоҳ қилиш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент Фармони Тошкент, 2000. Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами. - Тошкент: Ўзбекистон, 2003.

Tijorat banklari faoliyatida kredit risklarini kamaytirish hozirgi kunda kredit siyosatining bosh maqsadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kreditlash jarayonida kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida Markaziy bankning 1998 yil 2 dekabrda 557-sonli "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi riskning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi nizomida keltirilgan quyidagi talablarga rioya etiladi:

-tijorat banklarining bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan ta'minlangan kreditning eng yuqori miqdori bankning birinchi darajali kapitaliga nisbatan 0,25 qilib belgilangan;

-tijorat banklarining bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan ta'minlanmagan kreditning eng yuqori miqdori bankning birinchi darajali kapitaliga nisbatan 0,05 dan oshmasligi lozim.

SHuni alohida aytish lozimki, xalqaro amaliyotda bir qarzdorga beriladigan kredit riskini kamaytirish maqsadida sinditsiyalashgan kreditlar turidan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda sinditsiyalashgan kreditlar berish evrovalyutalar bozorida kreditlashning asosiy shakllaridan biriga aylangan.

Sinditsiyalashgan kredit deganda ikki va undan ortiq bankni vaqtinchalik bank sindikatiga birlashib, ular tomonidan bitta mijozga beriladigan kreditlarni tushunish mumkin.

Bank sindikatini yaratishning zarurligi bizning nazarimizda qator sabablar bilan izohlanadi. Ular orasida asosiy lari, quyidagilardan iborat:

– yirik ob'ektlarni moliyalashtirish maqsadida bir necha tijorat banklarining ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini birlashtirishning zarurligi;

– sindikatga kiruvchi banklar o'rtasida kredit riskini taqsimlashning zarurligi;

– foyda olish imkoniyatini mavjudligi;

– banklarning kredit resurslari etarli bo'lmagan sharoitda ularning yirik investitsion loyihalarda ishtirok etish imkoniyati.

Sinditsiyalashgan kreditlar berish jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu kreditlarning hajmi yildan-yilga o'sish sur'atiga ega.

Keyingi yillarda sinditsiyalashgan kreditlar berish mexanizmida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. SHunday o'zgarishlardan biri yirik xalqaro tijorat banklarining bu sohadagi monopol mavqeiga putur etganligidir.

Bank kapitalining 10 foizidan oshadigan bitta mijozga beriladigan kreditga yirik kredit deb aytiladi. SHuni ta'kidlash lozimki, bank uchun "Yirik" toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar miqdorini shu qarz oluvchining o'z mablag'lari miqdoridan oshmaslik tavsiya etiladi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan yirik kreditlarning umumiy miqdori ko'rsatkichining eng yuqori darajasi regulyativ kapitalga nisbatan 8 barobar qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida qator me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqqan.

Imtiyozli kreditlash Jamg'armasi hisobidan beriladigan kreditlar "Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznes sub'ektlari, dexqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armaning mablag'lari hisobidan kredit berish tartibi to'g'risida" gi 2000 yil 19 maydagi nizomiga muvofiq beriladi.

Tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armasi bank foydasidan (soliq to'langandan so'ng), 25 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazish hisobiga shakllanadi. Bunda ajratmalarining 85 foizi filial ixtiyorida qoladi. Jamg'armaga chorakda bir marta, birinchi oyining 10 sanasidan kechikmasdan, bank Biznes-rejasida ko'zda tutilgan choraklik sof foydaning rejalangan summasidan ajratmalar o'tkaziladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolarning va tadbirkorlik sub'ektlarining ishchanlik faolligini oshirish uchun ularning moliyaviy mablag'lar hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonuni 2006 yil 15 sentyabrda qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan, mikrokredit, mikroqarz hamda mikrolizing tushunchalari ifoda etilgan. Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar qonunga muvofiq mikromoliyaviy xizmatlarni amalga oshiradilar.

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish hamda kredit berish jarayonini imkon qadar soddalashtirish va qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida qator ("Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va dexqon xo'jaliklarini milliy va chet el valyutasida mikroreditlash tartibi to'g'risida" 2000 yil 29 fevraldagi 902-sonli, "Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa sub'ektlarini milliy va chet el valyutasida mikroreditlash tartibi to'g'risida" 2000 yil 29 fevraldagi 903-sonli, "Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi 2001 yil 3 oktyabrdagi 1074-sonli, "Tijorat banklari tomonidan ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga mikroreditlar berish tartibi to'g'risida"gi 2002 yil 3 iyundagi 1146-sonli nizom) me'yoriy hujjatlar muvofiqlashtirildi va yangi tahrirda yagona, "Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga byudjetdan tashqari jamg'armalar va Tadbirkorbank kredit liniyalari hisobidan mikroreditlar berish tartibi to'g'risida"gi 1548-sonli nizom 2006 yil 21 fevralda ishlab chiqildi. Bundan asosiy maqsad, banklarda hujjatlar sonini qisqartirish va tadbirkorlar uchun kreditlash amaliyotidan foydalanishda qulaylik yaratishdir. Chunki hujjatlar sonining ko'p bo'lishi, ularni o'rganish va amaliyotda qo'llash jarayonida ma'lum chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan byudjetdan tashqari jamg'armalar: – Dehqon va fermerlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Ish bilan bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda sobiq "Biznes Fond"ga qarashli kredit liniyalari AT "Mikroreditbank" imtiyozli kredit resurslari hisobidan tijorat banklari o'z mijozlariga kreditlar bermoqda.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda muhim o'rin tutadi. SHu bilan birga, byudjetdan tashqari jamg'armalar kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning ikkinchi manbasi ham hisoblanadi.

Dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarining faoliyatini boshlash uchun aylanma mablag'larni shakllantirishga, investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, asbob-uskunalar sotib olish uchun beriladi.

Dastlabki sarmoyani shakllantirishga mikroreditlar yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklari va mikrofirmalarga eng kam ish haqining 150 baravarigacha miqdorida hamda kichik korxonalar va fermer xo'jaliklariga eng kam ish haqining 300 baravarigacha bo'lgan miqdorda beriladi. Ushbu mikroreditlardan foydalanish uchun foiz miqdori Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismini tashkil etadi.

Dastlabki sarmoyani shakllantirishga kreditlar uch yilgacha muddatga, kreditlarni qaytarish muddatini uzaytirish huquqsiz beriladi. Mazkur kreditlar uchun birinchi yil imtiyozli davr bo'lib, keyingi yildan foiz undirish boshlanadi. Kreditlar uchun hisoblangan foizlar dastlabki 12 oy mobaynida daromad solig'i hisoblash bazasiga kiritilmaydi.

- Tijorat banklari tomonidan byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan kichik biznes sub'ektlariga ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirish maqsadlari uchun mikroreditlar berilmoqda. Xususan, yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va dexqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 200 baravaridan hamda yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga eng kam ish haqining 1000 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan beriladigan kreditlar uchun imtiyozli foiz stavkasi kreditlanayotgan investitsion loyihalarning yo'nalishidan kelib chiqib, quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

– dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish, chorvachilik, parrandachilikni

rivojlantirish uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi miqdorida;

– ishlab chiqarish hamda xom-ashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, binokorlik materiallarini ishlab chiqarish va qurilish maqsadlari uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 40 foizi miqdorida;

– aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, turizm sohasini rivojlantirish maqsadlari uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 45 % miqdorida stavkalar o'rnatilishi mumkin.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan berilayotgan kreditlar bo'yicha bank marjasi imtiyozli foiz stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi. Bunda bank marjasi o'rnatilgan imtiyozli foiz stavkalari miqdorining oshishiga olib kelmaydi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan kichik biznes sub'ektlariga beriladigan kreditlar muddati har bir jamg'armaning Nizomida belgilangan tartibga ko'ra turlicha bo'ladi. Dexqon va fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga beriladigan mikrokreditlar 2 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan beriladigan boshqa barcha mikrokreditlar 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, Dexqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan beriladigan kreditlar faqatgina dexqon va fermer xo'jaliklari uyushmasining a'zolarigagina beriladi. Boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan beriladigan kreditlar barcha kichik biznes sub'ektlariga berilishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslarning oila daromadlari turli manbalar hisobidan shakllanadi. Jumladan, oila a'zolarining ish haqi shaklidagi daromadlari, oilaviy tadbirkorlikdan olinadigan daromad, yordamchi xo'jalikdan olinadigan daromad, davlatning ijtimoiy yordamlari va boshqa manbalar hisobidan olingan daromadlar hisobiga shakllanadi. Oilaviy tadbirkorlikdan olinadigan daromadlarni ko'paytirish, ya'ni oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish o'ta muhimdir. Respublikamizda bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Oilaviy tadbirkorlik jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiradigan birgalikdagi faoliyati bo'lib, er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan umumiy mol mulk asosida amalga oshiriladi. Oilaviy tadbirkorlik er-xotin va ularga ko'maklashadigan oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalar, tarkibida nogironlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bo'lgan oilalar mikrokredit olishda ustunlikka ega bo'ladilar.

Oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga beriladigan mikrokreditlar miqdori eng kam oylik ish haqining 150 baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etadi.

Mikrokreditlar 2 yilgacha muddatga, uzaytirish huquqisiz beriladi, muddatning olti oyi imtiyozli davr hisoblanadi. Mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz miqdori Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismini tashkil etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirish asosan uch yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

Fermerlar uchun ko'proq qulayliklar va imkoniyatlar yaratish maqsadida imtiyozli kreditlarni rasmiylashtirish va ajratish mexanizimi yildan-yilga takomillashtirilib kelinmoqda. Xususan, "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi 1675-sonli nizom yangi tahrirda 2007 yil 14 aprelda ishlab chiqildi.

Fermer xo'jaliklariga kreditlar ular tomonidan davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g'alla va paxta xom ashyosi qiymatining 60 foizgacha (tayyorlov korxonasi tomonidan bo'nak tariqasida berilgan urug'lik qiymatini inobatga olgan holda) miqdorida beriladi.

Kredit miqdori qishloq xo'jaligi korxonasining "O'zpaxtasanoat" uyushmasi va "O'zdonmaxsulot" aksiyadorlik korxonalari bilan davlat ehtiyojlari uchun etkazib beriladigan maxsulot uchun tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi xarid narxlari asos qilib olinadi. Yangi xarid narxlari tasdiqlangach, kredit miqdori kredit oluvchining talabiga ko'ra qayta hisoblab chiqilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi sub'ektlarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan maxsulotlarni etishtirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga kreditlar quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- ish xaqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash uchun;
  - meneral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;
- yoqilg'i-moylash maxsulotlarini xarid qilish uchun;
  - MTPLar, muqobil MTPLar va qishloq xo'jalik texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik sub'ektlarining xizmatlari uchun to'lovlarga;
  - moliyaviy lizingga berilgan texnika vositalarining lizing to'lovlariga;
- SFUlar(suvdan foydalanuvchi uyushmalari) xizmatlari uchun to'lovlarga;
- yagona er solig'i to'lovlariga to'lanadi.

SHuningdek, paxta va g'alla etishtirish bilan bog'liq bo'lgan xo'jaliklarning zaruriy ehtiyojlari, shu jumladan, sug'urta mukofoti uchun to'lovlar amalga oshirilishi mumkin.

YUqoridagi maqsadlar uchun beriladigan kredit miqdorini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Kishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan agrotexkartalardan kelib chiqqan holda, har bir qishloq xo'jalik ekini bo'yicha har bir xarajat turining eng ko'p me'yori (qishloq xo'jalik yilining tegishli davrlari yoyilmasi bilan) har yilgi hosil uchun tasdiqlanadi. Kredit ushbu me'yorlar doirasida ajratib boriladi.

Mamlakatimizda, xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda, qishloq xo'jaligini iqtisodiy isloh etish bo'yicha o'ta muhim chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarni tug'dirib berish bunday yuksak natijalarni qo'lga kiritishda hal qiluvchi omil bo'lmoqda, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining etakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan erlarning 85 foizdan ortig'i, etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2012 yilda ham, so'nggi yillardagi kabi, yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rish davrida yog'ingarchilik ko'p bo'lgani, bahorning kech kelgani va namgarchilikning yuqori bo'lgani, yoz faslida havo haroratining haddan ziyod oshib ketgani qishloq xo'jalik ishlarini amalga oshirishda jiddiy muammo va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

SHunga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil etishtirishdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib-terib olindi.

Kun sayin mustahkamlanib, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakati O'zbekistonda o'zini to'la oqladi va bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, desam, o'ylaymanki, barchamizning umumiy fikrimizni ifoda etgan bo'laman.

Fermerlarimizning ongu tafakkurida o'z eri va ishlab chiqarayotgan mahsulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan-yilga tobora mustahkamlanib, ularning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. Eng asosiysi – odamlarimizning ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgarimoqda, bebaho boyligimiz bo'lgan er va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish uchun mas'uliyat tuyg'usi kuchaymoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar fermer xo'jaliklari vakolatlarini sezilarli ravishda kengaytirdi.

SHu bilan birga, tan olish kerakki, fermerlik harakatining Fermer xo'jaliklari uyushmasi shaklidagi tashkiliy tuzilmasi qishloq xo'jaligini isloh etish va sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fermerlar oldida turgan vazifalarni hal etish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsata olmadi.

Fermerlik o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida Fermer xo'jaliklari uyushmasi O'zbekiston Fermerlari kengashiga, viloyat va tumanlarda esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhimi, ushbu tuzilmalarning huquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, ularga er uchastkalarini uzoq muddatga ijaraga berish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli birorta masala fermerlar kengashlarining bevosita ishtirokisiz hal etilishi mumkin emas.

Mazkur kengashlarning asosiy vazifasi davlat va xo'jalik boshqaruvi, joylardagi davlat hokimiyat organlari bilan munosabatlar bo'ladimi, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish bo'ladimi, shuningdek, sudlarda ishlarni ko'rib chiqish bo'ladimi – hamma erda fermerlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Bir so'z bilan aytganda, fermerlar kengashlari fermerlik harakatining o'zagi, yo'naltiruvchi kuchi bo'lishi, uni qishloqni rivojlantirish va shu asnoda qishloq aholisi farovonligini oshirishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylantirishi lozim.

Fermer xo'jaligining biron - bir xarajat turi bo'yicha to'lovlarga ehtiyoji bo'lmagan hollarda, mazkur oy uchun umumiy ajratilgan mablag'lar fermer xo'jaliklari tomonidan boshqa ruxsat etilgan ehtiyojlar uchun (ish xaqidan tashqari) o'matilgan yillik me'yor doirasida ishlatilishi mumkin. Kreditlar tegishli qishloq xo'jaligi maxsuloti bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan yakuniy hisob - kitoblar yakunlanguncha, lekin 18 oydan ko'p bo'lmagan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Fermer xo'jaligini kreditlash bank marjasini hisobga olgan holda, imtiyozli foiz stavkasi bilan amalga oshiriladi. Bu kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi yillik 3 % miqdorida belgilanib, uning 2 foizi bank marjasini tashkil etadi.

Kredit fermer xo'jaligiga uning asosiy talab qilib olguncha depozit hisobraqami ochgan va unga xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan beriladi. Ushbu kreditlarni ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobraqami ochilgan bank tomonidan berilishiga ruxsat berilmaydi.

Fermer xo'jaliklari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzilgandan so'ng, tayyorlov tashkilotlari va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi har bir bank filiali bo'yicha ma'lumot tayyorlab, kreditlashni rasmiylashtirish uchun ularning viloyat filiallariga taqdim etiladi. Banklarning viloyat boshqarmalari o'z navbatida bu ma'lumotlarni fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi banklarga, filiallarga etkazadi.

Imtiyozli kreditlarning o'z muddatida qaytishini ta'minlash maqsadida, bank, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom-ashyosi va g'alla etishtirishni moliyalashtirish maqsadida fermer xo'jaliklariga berilgan imtiyozli kreditlar qaytarilishi bo'yicha tadbirkorlik xavfini sug'urta qilishi mumkin. "O'zagrosug'urta" kompaniyasining imtiyozli kreditlarning qaytmasligi xavfini sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta badallari hajmi olinayotgan kredit summasining 1,25 foizi miqdorida bo'lishi kerak va tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi. Bunda taqdim etilayotgan kredit miqdori "O'zagrosug'urta" DASK bilan kelishilgan sug'urta pulidan ko'p bo'lmasligi zarur.

Fermer xo'jaligi zaruriy hujjatlarni taqdim etgandan so'ng, bank 3 kun muddat ichida arizani ko'rib chiqishi va u bilan kredit shartnomasi tuzishi lozim. Bankning kredit qo'mitasi tomonidan kredit berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda, u raddiyani yozma shaklda rad javobini asoslab berishi shart.

Kredit shartnomasi tuzilishi bilan bir vaqtda fermer xo'jaligiga ssuda hisob raqami ochiladi. To'lovlar ssuda hisobraqamidan, qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalariga asosan,



naqd pulsiz shaklda (ish haqidan tashqari) yuqorida ko'rsatilgan maqsadlar uchun amalga oshiriladi va nazorat qilinadi. Bank tomonidan haqiqatda g'alla va paxta ekinlarining mavjudligi, ularda nihollarni parvarishlash bo'yicha zarur agrotexnika ishlarining o'tkazilishini joylarga chiqib aniqlash orqali kredit monitoringini olib boradilar.

Ekinlar (to'liq yoki qisman) mavjud bo'lmagan yoki ular ahvolidagi qoniqarsizligi, jumladan, agrotexnik tadbirlarning kechikishi, maydonda begona o'tlarni ko'payishi holatlari aniqlanganda, bank tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarining xulosasi asosida kreditlashni to'xtatadi va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin so'ndirish choralari ko'riladi. Bu choralar kredit shartnomasida kelishilgan bo'lishi kerak.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foizlar kreditning amaldagi qoldig'iga har kuni hisoblab boriladi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan;

– g'alla etishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha yilning iyul oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha;

– paxta xom-ashyosini etishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha yilning noyabr oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha undiriladi. Bunda fermer xo'jaliklari kreditni va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarishlari mumkin.

Respublikamizda etishtirilayotgan paxta va g'allaga davlat buyurtmalarini joriy etilishi, bir tomondan ularning mahsulotlariga barqaror talabni vujudga keltirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchidan, ana shu mahsulotlar qiymatining 50 foizi miqdorida oldindan bo'nak puli olish imkoniyati vujudga keldi. Ushbu mexanizmning oldingi uslubdan yana bir qulay jihati shundaki, davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan paxta xom-ashyosi va g'alla etishtirish bo'yicha tijorat banklari orqali to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kredit berilishi – bu fermer xo'jaliklari uchun ehtiyoj sezilgan xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va mablag'larni mustaqil ravishda tasarruf etish hamda ishlatish sharoitini yaratadi.

## **2. Kreditlash munosabatlarini amalga oshirish bosqichlari.**

Kreditlash jarayonini tashkil etish va zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirish, ya'ni kredit munosabatlarini amalga oshirish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- a) kredit olish uchun arizalarni ko'rib chiqish va bo'lg'usi qarz oluvchi bilan suhbatlashish;
- b) qarz oluvchining kreditni olish qobiliyatini va ssudani berish bilan bog'liq riskni baholash;
- v) kredit foiz stavkasini belgilash;
- g) kredit shartnomasini tayyorlash va imzolash.

Ushbu bosqichlar amalga oshirilgandan so'ng, kredit munosabatlari o'rnatiladi. Ayrim holatlarda mijozlarning kredit to'loviga layoqatligini chuqur tahlil qilinmasligi natijasida kredit riski kelib chiqishini inobatga olgan holda, bunday holatlar ro'y bermasligi maqsadida mijozlar moliyaviy ahvolidi to'g'ri baholash lozim.

Tijorat banklari o'z mijozlari faoliyati to'g'risida doimiy axborotga ega bo'lishi, ularning kredit to'loviga layoqatligini, to'lov intizomini tahlil qilish va kreditlardan kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi zaxiralar vujudga keltirili lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 9 noyabrda tasdiqlangan 242-sonli «Aktivlar sifatini tahlili tartibi va mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni ishlatish» to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu Nizomda berilgan kreditlarning tasniflanishi va kredit riskini baholash yangi tartibi, kutilmagan yo'qotishlarga qarshi zaxiralar hisoblash, ushbu zaxiralarning ishlatilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish lozim. Bankda zaxiralarni to'g'ri va aniq tashkil qilinganligi bank tomonidan kreditlar tasnifi aniq amalga oshirilganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga asosan, moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda

amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish, shuningdek kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralarini ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash respublikaning moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarorining 1-ilovasi 32-bandida, bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmini joriy qilish, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda banklar aktivlari sifati monitoringini takomillashtirish, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilish belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida 2011 yil 10 sentyabrda Markaziy bank Boshqaruvining «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 26/1-sonli qarori qabul qilindi. Markaziy bank Boshqaruvining ushbu qarori 2011 yil 22 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 632-2-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilib 2011 yilning 2 oktyabrida kuchga kirdi. Markaziy bankning «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibi»ga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarda, jumladan quyidagilar ifodalangan.

Markaziy bankda tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralanadigan majburiy zaxira depoziti tashkil qilindi hamda ushbu majburiy zaxira depozitiga tijorat banklari o'z aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi shakllantirilgan maxsus zaxiralar summasiga teng miqdordagi mablag'larni vakillik hisobvaraqlaridan o'tkazib borish talabi qo'yildi. Majburiy zaxira depozitiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar miqdori har oyning 10, 20-sanalari va oy yakuni bo'yicha shakllantirilgan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira summasidan kelib chiqib qayta hisob-kitob qilinadi.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, uch ish kuni mobaynida tijorat banklari maxsus zaxiralar summasiga etmayotgan miqdordagi mablag'larni majburiy zaxira depozitiga o'tkazishi yoki tijorat banklarining asoslantirilgan murojaatiga ko'ra Markaziy bank tomonidan ortiqcha mablag'lar banklarga qaytariladi.

SHuningdek, yangi kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Markaziy bank tijorat banklari kredit portfelini tahlil qilgan holda, tijorat banklariga qo'shimcha ravishda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborishi mumkin. O'z navbatida, agar tijorat banklari yuqorida keltirilgan talablariga amal qilmagan taqdirda, Markaziy bank majburiy zaxira depozitiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'larni bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idan undirib oladi va bankka nisbatan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunining 53-moddasiga muvofiq tegishli chora va sanksiyalarni qo'llaydi. Bundan tashqari, yangi kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga ko'ra, bank tomonidan ajratilayotgan barcha kreditlar bo'yicha to'lovlar kredit shartnomasining butun amal qilish muddatiga taqsimlangan holda bo'lib-bo'lib to'lanishi belgilab qo'yildi. Ushbu qoida banklarda muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi belgi sifatida xizmat qiladi. SHu bilan birgalikda, kiritilgan o'zgartirishlar ko'ra, tijorat banklari o'z aktivlari sifatini tasniflash bo'yicha bir qator yangiliklar kiritildi. Jumladan, eski qoidalarga ko'ra, 30 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «standart», 90 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «substandart» va 180 kundan ortiq kunga to'lovi kechiktirilgan kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflangan bo'lsa, yangi tartibga ko'ra shartnoma muddatida to'lanmagan va grafik bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha oraliq to'lovlar 180 kundan kechiktirilgan barcha kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflanadi. Bundan tashqari, sud jarayonidagi aktivlar, qarzdorning moliyaviy holati yomonligi va to'lovga qobiliyatsizligi sababli to'lov muddati uzaytirilgan aktivlar hamda bank faoliyatida foydalanilmaydigan, muammoli kreditlarni qoplash uchun

olingan mulklar, ular bank balansiga olingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan aktivlar ham «umidsiz» sifatida tasniflanadi. Mazkur qoidalarining joriy qilinishi tijorat banklari aktivlar sifatining yanada oshishiga, muammoli kreditlarni paydo bo'lishini dastlabki vaqtlarda aniqlashtirishga imkoniyatlarni yaratadi, pirovardida tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta'minlaydi.

Kredit berish jarayonida kredit shartnomasi shartlarini bajarishga, qarz oluvchi olingan kreditdan samarali foydalanishiga, uni o'z vaqtida va to'liq qaytarishiga, kreditdan foydalanadigan butun davr mobaynida qarz oluvchi bilan yaqin aloqani saqlab turishi kerak. SHu maqsadda mijozning moliyaviy xo'jalik faoliyati, uning tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot etkazib berish borasidagi o'z majburiyatlarini, ishlab chiqarish hajmlarini qanday bajarayotgani, behuda xarajatlar va yo'qotishlar kabilar ustidan har chorakda mijozning kredit qobiliyatini hisoblab chiqib, qarz oluvchi bo'yicha tutilgan maxsus yig'ma jildda bu malumotlarni yig'ib borish kerak. Bank har chorakda mijozning kredit qobiliyatini tahlil qilib, qarz oluvchining yig'ma jildida bu malumotlarni to'plab borishi va bankka berilgan garov holatini tekshirib turishi lozim.

Zaxiralarni to'g'ri tashkil qilinishi ma'lum bir risk kriteriyalarini belgilaydi. Ushbu kriteriyalardan kreditning to'rt guruhdan qaysi biriga tegishliligini aniqlash mumkin va albatta buning oqibatida ma'lum bir kutilmagan yo'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilinishini amalga oshirish lozim.

Tijorat banklari amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq kredit portfeli sifatini muntazam ravishda tahlil qilib borish, har bir kredit bilan bog'liq risk darajasini sinflarga bo'lgan holda aniqlashi zarur.

Tijorat banklari qarzlarni bo'yicha tashkil etgan zaxiralarga mablag'lar amaldagi tartibda kiritiladi. Qarzlarni bo'yicha kutilmagan yo'qotishlar uchun zaxira xo'jalik organlariga berilgan kreditlar tahlili hamda bank risk darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilash asosida tashkil qilish kerak. Zaxiralarni belgilash asosida zaxira hajmi amaldagi qarzdorlik yoki risk guruhiga bog'liq bo'ladi. Berilgan qarz kiritilgan risk guruhi yomonlashgan taqdirda qarzlarni bo'yicha ehtimol tutilgan yo'qotishlar uchun rezervga ajratmalar har oyda o'tkazib borilishi lozimdir. Zaxiralar kreditlar bo'yicha quyidagicha guruhlanadi:

**Yaxshi kreditlar.** Bu o'z vaqtida qaytarilish imkoniyatiga ega bo'lgan kreditlar bo'lib, qarz oluvchini moliyaviy ta'minoti yuqori hisoblanib, etarlicha o'z mablag'lariga ega bo'ladi.

**Standart kreditlarga** 30 kundan 60 kungacha bo'lgan muddati o'tgan ssudalar va to'la ta'minlanmagan 30 kungacha bo'lgan muddati o'tgan ssudalar kiradi.

**Substandart kreditlar.** Bu kreditlarga yaxshi taminlanmagan 60 kundan 180 kungacha muddati o'tgan kreditlar kiradi va 30 kundan 60 kungacha to'la ta'minlanmagan muddati o'tgan kreditlar va 30 kungacha ta'minlanmagan muddati o'tgan ssudalar kiradi.

**SHubhali kreditlar.** Bu kreditlarga yaxshi ta'minlanmagan, lekin qarz muddati 180 kundan o'tgan va to'la ta'minlanmagan qarz muddati 60 kundan 180 kungacha bo'lgan va 30-60 kungacha bo'lgan umuman taminlanmagan ssudalar tegishli bo'ladi.

**Umidsiz kreditlar.** Bu kreditlar qarz muddati 180 kundan o'tgan va 60-180 kungacha to'la taminlanmagan muddati o'tgan qarzlarni kiradi.

Risk darajasini sinfga bo'lib chiqqandan keyin sinflarga qarab ssudani qaytmaslik ehtimoli belgilanib, uning oldini olish uchun zaxira hosil qilinadi. Bu zaxira mijoz tomonidan bank ssudasini qaytarilmagan taqdirda, o'z muddatida qaytarilmagan kreditni qoplash uchun ishlatiladi.

Bu jarayon har oyda ssudalarning belgilangan sinflari bo'yicha o'rganib chiqib, ssuda ahvoli yomonlashgan sari zaxira ham oshirib borilaveradi. Umidsiz deb tan olingan ssudalar to'laligicha zaxiralar hisobidan qaytariladi.

